



“RUSTAMXON” DOSTONIDAGI MAQOLLAR TAHLILI

To‘ychiyeva Mumtoza Jamshid qizi,
Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali 2-bosqich talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207477>

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy jihatdan yuksak saviyada yaratilgan xalq maqollarining milliy-mental xususiyatlari, turli estetik, pragmatik vazifalari “Rustamxon” dostonidagi maqollar misolida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: maqol, milliy xususiyat, paremiologik birliklar, xalq og‘zaki ijodi.

Xalqimizning o‘tmishidan hikoya qiluvchi dostonlarning jamiyat va millat tarixidagi o‘rnini belgilashga, ko‘p jildlik namunalarini tayyorlash va nashr etishga, ularning ilmiy va badiiy-estetik qimmatini yoritishga muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Natijada, dostonlar tilidagi lingvomadaniy birliklarning badiiy-estetik tabiati va lingvopoetik xususiyatlarini aniqlashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, xalqlarning yashash hududi va sharoiti, turmush tarzi, mental xususiyatlari, milliy xarakter kabi tushunchalarni tahlil qilish, og‘zaki manbalardagi madaniyat ifodalovchi belgilarni ajratish, ijtimoiy munosabatlar, xalqlar orasidagi muloqot ko‘rinishlari hamda muamola axloqiy-madaniy me‘yorlarini atroflicha tahlil qilish hozirgi tilshunosligimizning asosiy vazifalaridan sanaladi. [5: 3]

Maqollar xalq donishmandligining nodir namunalari sifatida og‘zaki badiiy ijodining keng tarqalgan mustaqil janridir. Shartli ravishda ularni xalqona axloq-odob qoidalari deb atash mumkin. Zero, maqollar xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-madaniy, axloqiy-falsafiy qarashlarining g‘oyat ixcham, lo‘nda, siqiq va obrazli ifodasidan tug‘ilgan hodisadir. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma‘lum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug‘iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo‘lib yuzaga keladi. Aytaylik, jahondagi barcha xalqlarda ham yashamoqning asosiy sharti-yemoq va kiymoq bo‘lib, buning moddiy negizi ekin ekish va undan mo‘l-ko‘l hosil olgan holda ham moddiy, ham ma‘naviy imkoniyatlarini ta‘minlashdir. Ekin ekish uchun yerni qay vaqtda shudgor qilish uning unumdorligini oshiradi? Bu savol javobi necha asrlik dehqonchilik tajribasining axloqiy xulosasi sifatida “Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda” [3: 153] maqolining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Qolaversa, xalq turmushidagi tajriba bir xil xulosalarni



keltirib chiqargan. Natijada mohiyatan bir mazmundagi maqollar yuzaga kelgan. Chunonchi, o‘zbeklardagi “Bug‘doydan-bug‘doy, arpadan-arpa” va “Nima eksang - shuni o‘rasan” [3:142] maqollari tojiklarda “Gandum az gandum biro‘yad, jav zi jav” va ruslarda “Chto poseyesh, togo i pojnesh” shakllarida qo‘llaniladi.

Jahon madaniyati xazinasiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan o‘zbek xalq eposi tarkibidagi “Rustam” turkumidagi dostonlar katta ahamiyatga egadir. Ular o‘zbek xalqining an‘anaviy epik fondidan munosib o‘rin egallagan, mehnatkash xalqning orzu-umidlarini ifodalagan va shuning uchun ham ko‘p asrlar xalq shoirlari tomonidan kuylanib, ijodiy boyitilib, og‘izdan-og‘izga o‘tib bizgacha yetib kelgan asarlardir. “Rustamxon” dostoni bugungi kungacha eng kop nashr etilgan, biroq yetarli darajada tadqiq etilmagan dostonlar sirasiga kiradi. Ushbu doston va uning ijrochilari haqida dastlab V.M.Jirmunskiy va X.Zarifovlar o‘zlarining “O‘zbek xalq qahramonlik eposi” nomli kitobida batafsil ma‘lumot beradilar. Bu olimlar “Rustamxon” dostoniga qahramonlik-romantik eposi namunasi sifatida qaraydilar. “Rustamxon” dostonida ham romantik dostonlarda bo‘lgani kabi qahramonning ishqiy sarguzashtlari joy olgan.

Doston tarkibidagi paremiologik birliklar tarkibiga kiruvchi maqollarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning xalq orasida keng qamrovda tarqalishiga, o‘z navbatida juz‘iy o‘zgarishlarga uchragan holda ishtirok etganligiga guvoh bo‘lamiz. Xalq orasida “Mard so‘zidan, yo‘lbars izidan qaytmaydi” degan maqol bor birgina shu maqol doston tarkibida ikki o‘rinda ikki epik qahramon tilidan turli vaziyatlarga nisbatan qo‘llanilgan, birinchi bo‘lib bu paremiologik birlik epik qahramon Rustamning Oftoboyga “Shunda ham Rustam: “Mard so‘zidan, yo‘lbars izidan burilmas” [2: 123] degan gap bor. Ajdarhar damiga tortadi, meni yutadi, deb vahm qilmayman. Qayishmay ajdarhaning yo‘lini aytgin-dedi, jumalari orqali doston tarkibidagi maqol xalq orasida ma‘lum juz‘iy o‘zgarishlarga uchraganini ko‘rishimiz mumkin. Bu yerda epik qahramon hisoblanmish Rustam o‘zining botir, jasur va mardligini shu maqol bilan ifodalaganligiga guvoh bo‘lamiz. Ikkinchi epik qahramon bu Tog‘ay obrazi hisoblanadi. Tog‘ay dostonida o‘sha zamonning udumiga muvofiq kabag‘allarning boshi edi. U vaqtda shunday rasm bor edi: kambag‘alning otasi deb, bir odamni kambag‘allarga boshchi qilib qo‘yar edi. Qanday kambag‘al gunohkor bo‘lsa ham, javobini shundan so‘rar edi. Xisravshohning askarlari kambag‘allar orasidagi suhbatni eshitib ularning orasidagi Tog‘ayning ajdarhoning o‘ldirishni aytganini eshitib uni shoh huzuriga olib ketishmoqchi bo‘lishadi. “Biz ot ustida aysak qochadi, so‘ngra tonib bo‘yniga olmay yurarmi deb kelib bilagingdan



ushladik. Sen qo‘rqma, boyagi gaplaringni poshshoga aytmaymiz. Tog‘ay aytdi Mard so‘zidan, yo‘lbars izidan burilmaydi” degan gap bor. O‘zim talab qildim, degan jumalari orqali ikkinchi epik qahramon ham o‘zining jasurligini isbotlamoqchi bo‘ladi. Bu maqol xalq orasida yigitlarning nutqida uchrashiga guvoh bo‘lamiz, xususan, dostonida ham shuni ko‘ramiz.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xalq maqollari og‘zaki ijodimizning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, unda xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy hayot tarzi, milliy-mental xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Xalq dostonlari tarkibida kelganda esa ma’lum estetik, pragmatik vazifa bajaradi. Doston badiiyatini boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from New York, USA. <https://conferencea.org> Sep. 28th 2022
2. Rustamxon. Nashrga tayyorlovchi H. Zaripov. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent–2007. B. 215.
3. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. -T.:”Musiqqa”, 2010. 290-291 b.
4. Международный научный журнал “Научный импульс” № 9 (100), часть 1 апреля -387 ст. 2023
5. Abdumannatova, N. (2022). LINGUISTIC ANALYSIS OF THE WORK “HOTAMNOMA”. Prospects of Uzbek Applied Philology, 1(1). Retrieved from <http://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences3/article/view/207>